MUSHARAKA SHARTNOMALARINING O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA JORIY QILISH ISTIQBOLLARI.

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti

Isroilov Qurbonali Shuxrat o'g'li

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mushoraka shartnomalarining paydo bo'lishi tarixi va uning iqtisodiy mazmuni, ananaviy kredit mahsulotlaridan afzalliklari va kamchiliklari hamda musharaka kredit mahsulotining O'zbekiston tijorat banklarida joriy qilish istiqbollari yoritilgan.

Kalitso'zlar: Islom moliyasi, musharaka, ribo, kamayuvchi musharaka, inflyatsiya ,shariat,islom banki.

Kirish

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda insonlarning cheklanmagan ehtiyojlarini cheklangan resurlar bilan oqilona qondirish iqtisodiyotning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.Hozirda tijorat banklari dunyoning istalgan nuqtasida o'z faoliyatini olib bormoqda hamda insonlar banklarning kredit mahsulotlaridan foydalanib kelmoqda.

Bir qarashda bank deganda barchamizning xayolimizga ustama foiz evaziga kredit ajratayotgan tijorat tashkiloti keladi.Lekin dunyoda banklarning shunday yana bir turi mavjudki ushbu banklar, ya'ni islom banklari, kreditlarini ustama foiz evaziga emas balki daromad va zararni kelishilgan holatda bo'lishish evaziga kreditlar ajratadi.Islomiy kredit vositalari ichida eng sof islomiy kredit instrumenti bu musharaka hisoblanadi.(Usmani,2021;Farooq and Ahmed,2013) Aynan oddiy insonlar uchun ananaviy banklar bilan islomiy banklarning farqini ajratishda musharaka instrumenti va uning mohiyati yorqin misol bulaoladi.

Musharaka - bu qo'shma tadbirkorlik yoki o'zaro hamkorlikdagi biznes turi bo'lib, bunda ikki yoki undan ko'p hamkorlar o'zaro kelishilgan shartnoma


asosida ma’lum bir loyiha ustida tadbirkorlik faoliyatini olib boradi.Bunda ular ushbu biznes uchun zarur bo’lgan barcha resurslar-kapital,ishchi kuchi va tadbirkorlik qobilyatini o’zaro kelishilgan holda tomonlar o’rtasida taqsimlab oladi hamda ular foyda va zararni ham oldindan kelishilgan shartlarda taqsimlaydilar.(Usmani,2021;Samad,et al.2005; Iqbal and Molyneux 2005)

Musharaka shartnomalarini tarixiga nazar solsak , Payg’ambarimiz Muhammad s.a.v o’z rafiqalari Hadicha onamiz bilan sheriklik asosida tadbirkorlik ishlarini olib borishgan va aynan o’sha davrlardan boshlab musharaka shartnomalari ommalashib boshlagan.

Musharaka atamasi islom moliyasida ko’proq nazariy adabiyotlarda uchraydi, amaliyotda esa shirkat atamasi ko’proq musharaka shartnomalari bilan to’liq mazmunan mos keladi. (Nik Abdul Ghani,2021 va Hamzah, at el., 2013) Ammo shirkat shartnomalari musharaka shartnomalariga nisbatan ancha kengroq shartnomalar hisoblanadi chunki shirkatlar barcha turdagi qo’shma bizneslarga nisbatan ishlatilsa musharaka shartnomalari esa faqat islomiy qoidalarga asoslangan qo’shma bizneslarda namoyon bo’ladi.

Musharaka shartnomalarida barcha hamkorlar o’zlari ixtiyoriy ravishda biznes hamkorligiga kirishishi zarur ya’ni shartnoma qatnashchilari hech qanday tahdidsiz va tazyiqlarsiz ushbu biznesni shartlarini qabul qilishlari kerak.Musharaka shartnomalarida tomonlarning biznesdagi ulushi faqat pul ko’rinishida bo’lishi shart emas. Masalan, ma’lum bir biznesda kimdir pul bilan qatnashsa yana kimdir mol-mulk bilan boshqa hamkor esa ishchi kuchi bilan qatnashishi mumkin.Bunda hamkorlar biznesda o’zlarining kiritgan ulushlarini joriy bozor narxidagi qiymatini aniqlaydilar va biznesdagi foyda va zararni taqsimotini belgilashda qatnashchilarning ulushi asosiy tasir qiluvchi omil bo’lib xizmat qiladi.Ammo ko’plab iqtisodchi olimlar musharaka shartnomalarida foydaning taqsimotini tomonlarning kiritgan ulushiga mos ravishda belgilashga e’tiroz bildiradilar. Chunki musharaka shartnomalarida tomonlar o’zlarining kapital ko’rinishidagi ulushlaridan tashqari, biznes g’oyalari va tashabbuslari bilan ham ishtirok etishi mumkin. Shuning uchun ham musharaka shartnomalarida foyda


taqsimoti tomonlarning biznesga kiritgan ulushiga mos ravishda emas balki oldindan kelishilgan ulushda taqsimlanishi , zarar taqsimoti esa biznesdagi ulushga qarab taqsimlanishi islomiy iqtisodchi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Ya'ni musharaka shartnomalarida aktiv ishtirokchilar va passiv ishtirokchilar mavjud bo'ladi.Masalan banklar odatda ham aktiv ishtirokchi ham passiv ishtirokchi vazifasini bajaradi,



1-rasm.Depozitor va bank o'rtasida musharaka shartnomasida foyda va zararni taqsimlash.

***Manba**:Internet malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

1-rasmda mijoz islomiy bankka ma'lum bir loyihani moliyalashtirish uchun depozit mablag'ini topshiradi va musharaka shartnomasi asosida foyda va zarani 60 foizga 40 foiz ulushda bo'lishishga kelishadi.Bu yerda depozitor ushbu loyihada passiv ishtirokchi bank esa aktiv ishtirokchi hisoblanadi.



2-rasm.Depozitor va bank o’rtasida musharaka shartnomasida foyda va zararni taqsimlash.

***Manba**:Internet malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

2-rasmda Islom banki depozitordan qabul qilib olgan mablag’ni boshqa bir tadbirkorga kredit sifatida taqdim etadi va loyihadan kelayotgan foyda va zararni 65 foizi bankka 35 foizi esa tadbirkorga taqsimlanishi tasvirlangan. Bu yerda bank passiv ishtirokchi sifatida qatnashmoqda.Boshqacha qilib aytganda islom banklari depozitorlarga mushoraka asosida biznes loyihalar taklif qiladi va ushbu biznes loyihalarni tadbirkorlarga kredit sifatida sotadi.Yuqoridagi 1-rasmda loyihada bank ulushi 40 foiz edi va 2-rasmda esa 65 foiz etib belgilangan.Ya’ni bank ajratgan kreditidan kelgan foydani 65 foizini o’ziga olib qoladi va depozitorga dastlabki shartnomada kelishilganidek foydani 60 foizini taqdim qiladi. Shunday qilib bank foydasi ushbu loyihada 5 foizni tashkil qilmoqda.

Musharaka kredit instrumenti orqali nafaqat biznes faoliyatini moliyalashtirishda balki jismoniy va yuridik shaxslarni uy-joy va ko’chmas mulk ipotekasi sotib olishda ham keng foydalanish mumkin.Masalan bir fuqaro

500 000 000.00 so'mlik uyni sotib olmoqchi va uni 100 000 000.00 so'm o'z mablag'i mavjud.Agar mijoz sotib olmoqchi bo'lgan uy joyni ijara to'lovi oyiga 5 000 000.00 so'm bo'lsa, bank mijozga 4 yilga 400 000 000.00 so'm kredit mablag'i ajratsa uning to'lov grafigi quyidagicha bo'ladi.

1-javal

Musharaka shartnomasi orqali uy-joy sotib olinganda to'lov jadvali

Yillar	Ijara to'lovi	Asoiy qarz to'lovi	Jami bankka to'lov	Bank ulushi 80 %	Mijoz ulushi 20 %
1	48 000 000	100 000 000	148 000 000	60 %	40 %
2	36 000 000	100 000 000	136 000 000	40 %	60 %
3	24 000 000	100 000 000	124 000 000	20 %	80 %
4	12 000 000	100 000 000	112 000 000	0 %	100 %
Jami	120 000 000	400 000 000	520 000 000		

Manba:*Fundamentals of Islamic Finance and Banking 2018, ma'lumotlari asosida tayyorlandi.*

1-jadvalda mijoz 20 foiz boshlang'ich badal ya'ni 100 000 000.00 so'm hamda 80 foiz kredit ya'ni 400 000 000.00 so'm bilan jami 500 000 000.00 so'mga uy sotib olganda uning yillik to'lovi jadvali keltirilgan.Bu yerda mijozni bankka to'laydigan ustamasi uning ushbu uydagi o'z ulushiga hamda yillik ijara summasiga to'g'ri proporsional bog'langan.Jadvaldan ko'rinib turibdiki yilma yil mijozni to'lovi kamayib bormoqda va shu sababli ham musharakani ushbu turi kamayuvchi musharaka ham deb nomlanadi.

2-javal

2020-2023-yillar oralig'ida Pokistonda islomiy kredit instrumentlarining ichida musharaka va kamayuvchi musharaka instrumentining ulushi

Kredit turi	2020 (%)	2021 (%)	2022 (%)	2023 (%)

Murabaha	13.4	15.3	15.7	14.8
Ijara	4.9	4.8	4.6	4.1
Musharaka	24.8	21.4	22.9	22.7
Kamayuvchi musharaka	34.2	35.0	35.2	34.4
Salam	2.4	2.1	1.4	1.1
Istisna	8.9	7.6	8.4	8.6
Boshqalar	11.3	13.8	11.8	14.3
	100	100	100	100

***Manba**:Turkish Journal of Islamic Economics 2025, ma'lumotlari asosida tayyorlandi.*

2-jadvalda 2020-2023-yillar oralig'ida Pokistonda banklar tomonidan ajratilgan islomiy kredit vositalarining ulushiga qaraydigan bo'lsak, islomiy kredit shartnomalarining deyarli 57 foizi musharaka hamda kamayuvchi musharaka shartnomalari asosida shakllanganini ko'ramiz. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki Pokistonda musharaka shartnomalari banklar va mijozlar uchun qulay kredit vositasiga aylangan.

O'zbekistonda ham bugungi kunda islomiy kredit vositalarini joriy etish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa Prezdentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan 2026 yil 27-martdagi O'RQ -1126-sonli O'zbekiston Respublikasi ayrim qonun va xujjatlariga, O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaror yurtimizda islomiy banklarning ochilishiga huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda islomiy kredit vositasi musharakani bank tizimida qo'llashda qonuniy asos yaratilgani bilan hali bir qator muammolar saqlanib qolmoqda:

1.Yurtimiz aholisining deyarli 90 foizi musulmon bo'lishiga qaramasdan, aholimiz o'rtasida islom moliyasi va kreditlari to'g'risida bilimlarning yetarli emasligi.

2. Iqtisodiyotimizda hali ham yashirin iqtisodiyotning mavjudligi.

3. Davlat tashkilotlarida korrupsiya holatlarini uchrab turishi.

4. Mamlakatimizda inflyatsiya darajasini beqarorligi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan muammolarni hal qilish uchun davlatimiz tomonidan bugun bir qator islohotlar olib borilmoqda.Masalan Prezdentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan iqtisodiyotni raqamlashtirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator qaror va farmonlar imzolanib, bugun o'z ijrosini topmoqda.Shu bilan bir qatorda bugun yurtimizdagi tijorat banklari tomonidan islomiy darchalar orqali faqatgina murabaha va ijara islomiy kredit instrumentlarini ajratilayotgani ham musharaka shartnomalarini yurtimizda banklar tomonidan qo'llanilishida risklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Barchamizga ma'lumki tijorat banklari musharaka orqali kredit ajratganda mijozni biznes sherigiga aylanadi hamda endi ushbu biznes uchun nafaqat mijoz balki bank ham bir qator ishlar olib borishiga to'g'ri keladi.Chunki islomiy banklarda agar mijoz bankrotlikka uchrasa bu bankning ham bankrotga uchrashini anglatadi.

Yuqoridagi izlanishlarimiz natijasida musharaka kredit instrumentini yurtimizdagi tijorat banklariga tadbiq qilishda bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi:

1.Respublikamiz Markaziy banki tomonidan aholimizga islomiy banklar to'g'risida hududlarda konferensiyalar hamda darslar o'tilib, tushunchalar berilishi kerak.

2.Tadbirkorlarni yashirin iqtisodiyotga undayotgan omillarni aniqlab, qulay soliq islohotlari o'tkazilishi kerak.

3. Davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi qatiy kurash olib borilishi hamda kuchli nazorat o'rnatilishi zarur.

4. Islomiy banklarga davlat tomonidan qator iqtisodiy hamda soliq imtiyozlari berilishi kerak hamda buni oqibatida islomiy banklar aholini sheriklik asosida tadbirkorlikka jalb qiluvchi drayverga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’RQ-1126-sonli O’zbekiston Respublikasi ayrim qonun va xujjatlariga, O’zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi qonuni, O’RQ-1126.
2. Turkish Journal of Islamic Economics 2025
3. Syeda Fahmida Habib, Fundamentals of Islamic Finance and Banking 2018
4. International Journal of Religion, 2024
5. https//cbonds.com/glossary/musharaka/